

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

"TASDIO LAYMAN"

OZELISMI rektori, professor
N.B.Sayfullayev

2024-yil
atga olibdi. № BD-60211000-100
2024-yil

**MADANIYATSHUNOSLIK
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar.
Ta’lim sohasi:	210 000 – San’at.
Ta’lim yo‘nalishi:	60211000 – San’atshunoslik (turlar bo‘yicha); 60211100 – Aktyorlik san’ati (turlar bo‘yicha); 60211200 – Rejissyorlik (turlar bo‘yicha); 5151400 – Texnogen san’at (turlar bo‘yicha); 60210200 – Kino-teleoperatorlik 60211900 – Xalq ijodiyoti (turlar bo‘yicha); 60212000 – Menejment (madaniyat va san’at menejimenti); 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)

Fan/modul kodi MK 20012	O'quv yili 2024/2025	Semestr 7	ECTS-Kreditlar 2		
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 2		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Madaniyatshunoslik	30	30	60	
I. Fanning mazmuni <p>“Madaniyatshunoslik” fanining respublikamiz oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlariga kiritilishi, eng avvalo, bo‘lg‘usi mutaxassislarni jahon madaniyati va sivilizatsiyasi yutuqlari bilan tanishtirishni, ularga gumanitar bilimlar berishni chuqurlashtirishni nazarda tutadi.</p> <p>Madaniyat taraqqiyotining asosiy qonuniyatları, madaniyat – fenomen sifatida, madaniyatshunoslikdagi muammolarning bartaraf etilishidagi tarixiy jarayonlarni o‘rganish, insonning yer yuzida paydo bo‘lgandan keyin to‘planagn ilmiy, falsafiy, axloqiy, diniy, siyosiy, huquqiy, badiiy bilimlarni o‘rgatuvchi fan. Madaniyashunoslikda jamiyat taraqqiyotining aks etishi. Madaniyatning fan, san’at va adabiyot bilan aloqasini o‘rganish zarurligi. Madaniy rivojlanish butun jahon mamlakatlariga xos jarayon ekanligi bayon etiladi.</p> <p>Madaniyatning mohiyati, mazmuni, tuzilishi, asosiy funksiyalari. Shaxsning ma’naviy kamol topishida madaniyatning o‘rni, insoniy munosabatlarni olivjanoblashtirishda uning ahamiyati.</p>					
2.	II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi <p>1-mavzu. Madaniyatshunoslik fan sifatida: predmet, maqsad va vazifalar Ma’naviyat, milliy qadriyatlar to‘g‘risida. Madaniyatshunoslik bilimlar tizimi sifatida. Madaniyatning sohalar bo‘yicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. Siyosiy madaniyat-insonlarning siyosiy manfaatlari, e’tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi huquqiy g‘oyalar majmui. Kasb mahorati madaniyati – aniq mehnat turi bilan bog‘liq nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar yig‘indisi. Pedagogik mahorat madaniyati – ilmiy bilimlar va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishdan, ekologik madaniyat – inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlardan iborat.</p> <p>Madaniyatning ko‘rinishlar bo‘yicha tasnifi. Hukmon madaniyat. Qishloq madaniyati. Shahar madaniyati. O‘rganish bo‘lib qolgan madaniyat. Madaniyatning paydo bo‘lish darajasiga ko‘ra turlari: yuksak madaniyat, xalq madaniyati, ommaviy madaniyat.</p> <p>2-mavzu. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatları Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o‘zgarib borishi. “Buyuk ipak yo‘li” madaniyati- O‘rta Osiyo madaniyatining uzviy</p>				

	<p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlikhar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston, 2016 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 2-fevraldag'i PQ-112-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish choratadbirlari to'g'risida" 2023-yil 27-iyuldag'i PF-114-sonli Farmoni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi./ Yangi O'zbekiston gazetasi, 2023 yil, 30 dekabr <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> www.Ziyo.net http://www.teatr.ru teatr.com http://www.mxat.ru
7.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>N.R.Abdunazarova O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi katta o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>A.H.Ismoilov – San'atshunoslik instituti bo'lim mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</p> <p>O.Z.Rizayev - O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi</p>

	<p>bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o'zgartirishga sabab bo'lgani.</p> <p>3-mavzu. Madaniyat taraqqiyotida meros va vorislik</p> <p>Me'morchilikka oid o'tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o'z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi natijasi. Ma daniy merosning mexanizmi. Ma'naviy merosning uzviyligi. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning mazmunan o'zgarishi. Madaniyatning ma'naviy merosni keng targ'ib qilishi. Umuminsoniy madaniy meros, "jahon madaniyati durdonalari" tushunchalari</p> <p>4-mavzu. Madaniyat funksiyalari</p> <p>Madaniyatning asosiy funksiyalari: bilish, baholash, tarbiyalash, boshqarish, moslashtirish ya'ni regulativ va kommunikativ funksiyalari. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari, ular o'rtasidagi umumiylig va farqlar. Antik madaniyat va qadimiy madaniyat, ular o'rtasidagi farqlar. Arxaik davrdagi insonning fikrash tarzi. Dunyoqarash va tafakkurning shakllanishiga tabiatdagi hodisalar, tabiiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatishi, dunyoqarash, tafakkur bilan tabiat doimo bir - biriga ta'sir o'tkazib borishi. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi, xalq og'zaki ijodi. Shumerlarda fan. Yozuv madaniyati.</p> <p>5-mavzu. Axloqiy madaniyat va uning dolzARB muammolari</p> <p>Madaniyat tushunchalari va ularning mohiyati, axloqiy tushunchasi va uning jamiyatda tutgan o'rni. Axloqiy madaniyat uning asosiy negizlari, uning ko'rinishlari hamda shaxs madaniyatida tutgan o'rni. Sharq mutafakkirlarining axloqiy madaniyatga oid qarashlari.</p> <p>Uyg'onish davri, uslub, renessansning asosiy alomatlari, aniq fanlar, falsafiy asarlar, she'riyat, islom dinining asosiy aqidasi, hadis, sahihi Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Imom Moturdiy, Mahmud az-Zamaxshariy, ilm-fan ravnaqi, Bag'dod Ma'mun akademiyasi, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino.</p> <p>6-mavzu. Madaniyat tizimida qadriyatlar masalasi</p> <p>Madaniyat taraqqiyotida qadriyatlar klasifikatsiyasi va uning transformatsiyasi. Qadriyatlarning tuzilishi va mohiyati. Qadriyatlar o'zgarishi: urbanitsaziya jarayoni, tillar klassifikatsiyasi va o'zgarishi, ommaviy madaniyat, globallashuv va madaniyat jarayonida keskin o'zgarishi. Qadriyatlarning turlari: ijtimoiy, ma'naviy, madaniy, xuquqiy, axloqiy, oilaviy, etno va turmush tarzi bilan bog'liq qadriyatlar transformatsiyasi.</p>
--	--

7-mavzu. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat rivojlanishining zamonaviy muammolari

XXI asr madaniyat dinamikasi. Madaniyat universiallashuvi va madaniyat konsepsiyasidagi o'zgarishlar. XX asr madaniyat rivojlanishidagi asosiy maktab va yo'nalishlar, madaniyat differensiyasi. Madaniyatshunoslikdagi madaniyat o'zgarishi va transformatsiyasi va madaniy merosga ta'siri. Madaniyatshunoslikdagi modernizatsiyalashuv jarayoni va uning milliy madaniyatga ta'siri. Yangilanayotgan O'zbekistonda madaniy o'zgarishlar. Xarakatlar strategiyasi – taraqqiyot strategiyasi. Yangi Renessans poydevorini yaratishda madaniyatning o'rni. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda qadriyatlar transformatsiyasi.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Madaniyatshunoslik fan sifatida: predmet, maqsad va vazifalar
2. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari
3. Madaniyat taraqqiyotida meros va vorislik
4. Madaniyat funksiyalari
5. Axloqiy madaniyat va uning dolzarb muammolari
6. Madaniyat tizimida qadriyatlar masalasi
7. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat rivojlanishining zamonaviy muammolari

Talabaning yo'nalishi va qiziqishi inobatga olinib mavzular alohida konkretlashtiriladi. Mazkur mashg'ulotlar mavzulari talabalar tomonidan mustaqil tayyorlanadi hamda bu ularning ilmiy izlanishlariga mavzu bo'lishi mumkin. Chunki, talabalarga ma'ruza va ilmiy ishlar uchun tavsiya etiluvchi mavzular talabaning qiziqishi, imkon va dolzarb masalalarga qaratilganligi bilan individual tarzda belgilab borilgani ma'qul. Ma'ruza, ilmiy ishlar talaba kasbi takomiliga uni professionallik ilmiy tadqiqotchilik yo'nalishida tahlil etish layoqatini namoyon etishga xizmat qilishi kerak.

VI. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan asarlar:

1. Madaniyatshunoslik fan sifatida: predmet, maqsad va vazifalar
2. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari
3. Madaniyat taraqqiyotida meros va vorislik
4. Madaniyat funksiyalari
5. Axloqiy madaniyat va uning dolzarb muammolari
6. Madaniyat tizimida qadriyatlar masalasi
7. Madaniyat va ma'naviyat tarkibida dinning o'rni
8. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat rivojlanishining zamonaviy muammolari

		V. Ta'lif natijalari/Kasbiy kompetensiyalari
3.		Talaba bilishi kerak: -“Madaniyatshunoslik” fani mazmunini -talabalarning turli tarixiy davr madaniyatlar - ijtimoiy guruhlarning urf-odatlari, turmush tarzi -ijtimoiy turmush voqeqliklarini yagona mazmun asosida anglash - Ko'plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligi to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i> ; - talabada madaniyat voqeqliklaridan xabardo bo'lishi haqida <i>bilimlarga ega bolish</i> ; - talaba jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo'lgan Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniyatning o'rni qay darajada ekanligini anglaydi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, milliy madaniyat va o'zga millatlar madaniyati,qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijobji munosabatda bo'lish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i> .
4.		VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari: VII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari: <ul style="list-style-type: none">• ma'ruzalar;• interfaol keys-stadilar;• blitz-so'rov;• guruhlarda ishslash;• taqdimotlarni qilish; jarayonga asoslangan metod.
5.		VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshirilqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha ijodiy ishni topshirish.
6.		Asosiy adabiyotlar <ol style="list-style-type: none">1. A.Mavrulov, M.Mavrulova “Madaniyat nazariyasi”. O'quv qo'llanma-T.: “Fan ziyozi” nashriyoti. 2023.2. Mustafayeva N.A. XX asrda O'zbekistonda madaniyat va tafakkur. T.: “Navro'z” 2014.3. Mavrulov A.A. va boshqalar. O'zbek xalqi san'atidagi transformatsiya jarayonlarining tarixiy tahlili (XX-XXI asr boshlari) T. “Lesson press” nashriyoti. 2017.4. Mavrulov A.A. va boshqalar Sharq Renessansi davri allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi. “Sano-standart” nashriyoti. T. 2017 yil.5. Q.Nishonboyeva. Mustaqillik va madaniyat rivoji. T. “Sano-standart” nashriyoti. 2017.